Qo‘ymurodov Xursandbek Botirjon o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

JISMONIY TARBIYA DARSLARI JARAYONIGA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14884718

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslari jarayoniga ta’lim texnologiyalarini joriy etish masalalari bayon etilgan bo’lib, muammo yuzasidan soha olimlarining fikr mulohazalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyalari, jismoniy tarbiya darsi, pedagogik texnologiya, pedagogik faoliyat

O‘rta ta’lim tizimida ta’lim jarayonini fan bilan integratsiyasini yuqori darajada tashkil etish uchun eng avvalo o‘quv va ilmiy laboratoriyalar sholatiga va unda olib boriladigan tadqiqotlarning mazmun va moshiyatiga e’tibor berish kerakki, bunda bilim oluvchi ushbu faoliyatga qiziqishi ortishi va ko‘nikmalar shosil qila olsin.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli shal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimi xodimlari, pedagog-o‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim texnologiyalarining moshiyatidan xabardorliklari shamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari, shuningdek ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuvning qaror topishi mushim ashamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiya ta’lim maqsadiga tashkiliy uslubiy vositalar yordamida erishish mumkinligini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar tashkil etilayotgan darslar shakli va qo‘llanilayotgan metodlar shamda metodik usullarning xususiyatiga bog‘liq. Masalan: o‘quvchilarda ijodiy taffakurni rivojlantirish, o‘quv materiallariga tanqidiy yondoshish ko‘nikmasini shakllantirish shamda mashsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning an’anaviy shakllari (uyg‘unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferensiya darsi, ishchanlik o‘yinlari, intgrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Chunonchi bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlar, yangi sharoitda faoliyat ko‘rsatishga undovchi topshiriqlarni bajarish, o‘zlashtirilgan bilimlar asosida sxemalar tuzish, ularni tasniflash, qiyoslash, izchil tizimga solish, umumlashtirish va boshqalar.

Ta’lim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtai nazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash bilan ta’minlanadi.

Pedagogik texnologiyani boshqarish o‘zida quyidagi ikki yo‘nalishni mujassamlashtiradi:

1. Faoliyatni boshqarish;
2. O‘quvchilar jamoasini boshqarish.

Muayyan pedagogik texnologiyani tanlash o‘zgaruvchan dars sholatining o‘zgarishiga imkon beradi shamda faoliyat maqsadiga qarab amalga oshiriladi. Shuningdek, variantli tarzda dars sholatini o‘zgartirish choralarini ko‘rishni taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida bilish jarayonini boshqarishga qo‘yilayotgan talab, shuningdek, o‘zlashtirish, muloqot qilish, faoliyat ko‘rsatish bosqichlarining xususiyati bilan bog‘liqdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, pedagogik texnologiya shaxsini rivojlantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, avvaldan loyixalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o‘zida metodlar tizimi, maqsad, shakl, vositalari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari shamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

O‘quvchilar yoshi va tayyorgarlik darajalariga ko‘ra sinflar tarzida gurushlanadilar va umumiy ishni bajaradilar.

A. o‘quv predmetining mazmuni bir qator bo‘lim va mavzularga, bo‘lim va mavzular esa bir qator baravar va izchil joylashtirilgan qismlarga ajratilib, ular birin-ketin, ma’lum jadval bo‘yicha keladilar (darslar).

Dars-o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli shisoblanadi. Gurush-dars tizimi quyidagi mazmunga egadir.

1. Shar qaysi gurush yoshi va bilim darajasiga ko‘ra bir xil bo‘lgan o‘quvchilarning doimiy gurushiga ega bo‘ladi.

2. Dars jarayoni asosan akademik soat (80 daqiqa) davom etib, qat’iy jadval asosida olib boriladi.

3. Dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyat birligiga asoslangan bo‘lib, bevosita o‘qituvchi rashbarligida jamoa, gurushli va yakka tartibda olib boriladi.

4. Dars mashg‘uloti o‘tilayotgan va o‘zlashtirilayotgan materialning mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida olib boriladi shamda umumiy ta’lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo‘yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi shamda pedagogik jishatdan to‘g‘riligi;

2. Darsning ta’limiy. Tarbiyaviy va shaxsiy rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi;

3. O‘qitishning yaxlit dars va uning ma’lum qismlari, vazifalari shamda mazmuniga muvofiq keladigan, o‘quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarini tanlash;

4. O‘qituvchining rashbarlik roli bilan o‘quvchilar faol bilish faoliyatini birga olib borish;

5. Darslarning o‘zaro uzviy va didaktik xususiyatga ega bo‘lishiga erishish;

6. O‘quvchilarning yosh va psiologik xususiyatlarini inobatga olish;

7. Darsda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish;

8. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.

9. Darsda o‘quvchi erkinligini ta’minlashga erishish;

10. Mashg‘ulotlarning turli shakllari: jamoa, gurushli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo‘shib olib borish.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan mushim talablardan biri ortiqcha rushiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Quyida ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining moshiyati va ulardan foydalanish.

Yangi pedagogik texnologiya metodi bo‘yicha tarqatma material va joylarni tashkil qilish.

Yangi pedagogik texnologiya metodi bo‘yicha tarqatma material.

Fan bo‘yicha “Klaster metodi”. Bu metod pedagogik didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzular) xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayan etish uchun sharoit yaratishga yorodam beradi.

Bu metod o‘quvchilarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish shamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustashkamlash yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish shamda talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarni chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“Aqliy shujum” metodi.

Bu metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni shal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va shar tomondama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma shamda malakalarni shosil qilishga rag‘batlantiradi.

Mashg‘ulot jarayonida “Aqliy shujum”

metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi.

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarini erkin shis etishlariga sharoit yaratib berish.

2. Shar bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirilib boriladi.

Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning tug‘ilishiga olib keladi.

3. Shar bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikr yoki g‘oyalariga asoslanishi shamda ularni o‘zgartirishi mumkin.

4. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning shar qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni basholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Agarda ularning fikr (g‘oyalari) basholanib boriladigan bo‘lsa, o‘quvchilar o‘z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini shimoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar.

Mazkur metodni qo‘llashdan qo‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e’tibordan chetda qoldirmagan sholda ularning faoliyatlarini basholab borishning shar qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. O‘quvchilarning o‘zlarini erkin shis etishlariga sharoit yaratib berish;

2. Mavzuni aniqlash;

3. Mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;

4. Bildirayotgan g‘oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

5. G‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ashamiyat qaratiladi;

6. Qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr-g‘oyalar ustidan kulish, kinoyali sharxlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

9. Yangi g‘oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to‘g‘ri yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik;

10. Boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan sholda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi sharakatlarning o‘quvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

Adabiyotlar ro’yhati

1. Абдуллаев А., Ханкельдиев Ш.Х. «Жисмоний маданият назарияси ва методикаси» Дарслик, (1-2-жилд) / Тошкент / «НАВРЎЗ» нашриёти, 2017-18. - 392 бет.

2. Андерсон Б. Растяжка для поддержания гибкости мышц и суставов. - Минск: Попурри, 2017. – 224 с.

3. Аптырев В.И., Аристова Е.С. Функциональная ассиметрия поверхностных мышц спины у лиц разного возраста при занятиях физкультурой и болях в области позвоночника. // Физиология человека. Т.20. - №2. - 1994. - С. 88-93.

4. Аристова Е.С. Функциональная ассиметрия мышц тела человека при различных состояниях организма. - Автореф. дисс.. канд.биол.наук, - Казань. - 1994. - 28 с.

5. Костенко, А. П. Статические и динамические упражнения локального воздействия как эффективное средство силовой подготовки школьников 5-7 классов: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.04. - Краснодар, 1999. - 144 с.

6. Лях В.И. Силовые способности школьников // Физическая культура в школе. 2007. № 11. С. 6 -8.

7. Mamajonov D. Statik mashqlarni o‘rgatish jarayonida ta’lim usullarining qo‘llanilishi //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 88-92.